

UO'K 373.24

**EKOLOGIK BILIMLAR ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARDA TABIATGA QADRIYATLI MUNOSABATLARNI
SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARINI
O'RGANISHDA XORIJIY TAJRIBALAR**

Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası stajyor o'qituvchisi.

E-mail: Turgunovamohina1999@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslari hamda xorijiy tajribalarning o'zni tahlil qilingan. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiya masalalarining rivojlanish bosqichlari, turli mamlakatlarda qo'llanilgan innovatsion yondashuvlar hamda ularning samaradorlik jihatlari o'rganildi. Xususan, Germaniya, Yaponiya, Finlyandiya va Rossiya kabi davlatlarda ekologik ta'limga berilgan e'tibor, bolalarda ekologik madaniyat va qadriyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan metodik tajribalar yoritib berildi. Mazkur maqolada xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari ilmiy asosda baholandi. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida ekologik tarbiyani yanada samarali yo'lga qo'yishda metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ekologik bilimlar, qadriyatli munosabat, tabiat, ekologik tarbiya, xorijiy tajriba, tarixiy asoslar, innovatsion yondashuv, ekologik madaniyat, pedagogik metodika.

**ИЗУЧЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ФОРМИРОВАНИИ
ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ К ПРИРОДЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ
НА ОСНОВЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ**

Аннотация: в данной статье проанализированы исторические основы формирования ценностного отношения к природе у дошкольников на основе экологических знаний, а также роль зарубежного опыта в данном процессе. В исследовании рассмотрены этапы развития экологического воспитания в системе дошкольного образования, инновационные подходы, применяемые в разных странах, и их эффективность. В частности, освещены методические практики, направленные на формирование экологической культуры и ценностного отношения к природе у детей в таких странах, как Германия,

Япония, Финляндия и Россия. В статье дана научная оценка возможностям и перспективам применения зарубежного опыта в отечественных условиях. Полученные результаты могут служить методической основой для более эффективной организации экологического воспитания в деятельности дошкольных образовательных учреждений.

Ключевые слова: дошкольное образование, экологические знания, ценностное отношение, природа, экологическое воспитание, зарубежный опыт, исторические основы, инновационный подход, экологическая культура, педагогическая методика.

STUDYING FOREIGN EXPERIENCES IN FORMING PRESCHOOL CHILDREN'S VALUE-BASED ATTITUDE TOWARDS NATURE THROUGH ECOLOGICAL KNOWLEDGE

Abstract. This article analyzes the historical foundations of forming a value-based attitude towards nature among preschool children through ecological knowledge, as well as the role of foreign experiences in this process. The research examines the stages of development of ecological education in preschool systems, innovative approaches applied in different countries, and their effectiveness. In particular, the methodological practices aimed at developing ecological culture and value-based attitudes towards nature among children in countries such as Germany, Japan, Finland, and Russia are highlighted. The article provides a scientific evaluation of the possibilities and prospects of adapting foreign experiences to local conditions. The findings may serve as a methodological basis for organizing ecological education more effectively in preschool educational institutions.

Keywords: preschool education, ecological knowledge, value-based attitude, nature, ecological upbringing, foreign experience, historical foundations, innovative approach, ecological culture, pedagogical methodology.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ekologik muammolarni hal etish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Atrof-muhitning muhofazasi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari nafaqat kattalar, balki kichik yoshdagi avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarga ekologik bilimlarni berish, ularning tabiatga bo'lgan qadriyatli munosabatini shakllantirish bugungi kun ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishida poydevor bosqich bo'lib, bu davrda bola olamni bevosita idrok etadi, tabiat hodisalari va jarayonlariga qiziqish bildiradi. Shu bois ekologik bilimlarni erta yoshdan singdirish orqali bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki tabiatni asrab-avaylashga nisbatan ijobiy qarashlar, hissiy munosabat va mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. Tabiatga qadriyatli munosabatni erta yoshdan tarbiyalash kelajakda ekologik madaniyatli shaxsni voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur masalaning tarixiy ildizlari xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar hamda jahon ta'lim tajribasida o'z aksini topgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlarining ta'limiy qarashlarida tabiat va inson uyg'unligi g'oyasi yoritilgan bo'lsa, G'arbiy pedagogik an'analarda bolalarni tabiat bilan bevosita muloqotga kiritish orqali tarbiyalash tamoyillari shakllangan. Xususan, Fridrix Frebelning "bolalar bog'chasi" konsepsiyasi, Dyui pragmatizm falsafasi, Skandinaviya mamlakatlaridagi "outdoor education" tajribasi, shuningdek, Yaponiyaning tabiatni muqaddas qadriyat sifatida ulug'lash an'analari bolalar tarbiyasida ekologik bilim va qadriyatlarni shakllantirishning samarali yo'llari sifatida tarixda o'z o'rnini egallagan[1].

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar ekologik ta'limning maktabgacha bosqichda tizimli joriy etilishini ta'minlaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni[2] maktabgacha yoshdagi bolalar uchun davlat standartlari va dasturlarni belgilaydi hamda mamlakat siyosatida maktabgacha ta'limni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilishini nazarda tutadi — bu esa ekologik bilimlar va tabiatga qadriyatli munosabatni maktabgacha dasturlarga kiritishni talab qiladi.

Shu jihatdan qaraganda, ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirishning nazariy, tarixiy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish, xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni milliy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish va tabiatga qadriyatli munosabatni tarbiyalash masalasi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda asosan ekologik ta'limning nazariy asoslari, pedagogik metodlari va xorijiy tajribalarning o'рни alohida ta'kidlanadi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida inson va tabiat munosabatlari muhim falsafiy-pedagogik tamoyil sifatida talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti tabiat bilan uyg'unlikda shakllanishini uqtirib o'tganlar. Alisher Navoiy asarlarida ham tabiatni asrab-avaylash, insonni tabiat go'zalliklaridan ruhiy oziqa olishga undash g'oyalari ilgari surilgan.

Yevropa pedagogik merosida esa Fridrix Frebelning “bolalar bog‘chasi” konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda bolalarni tabiat qo‘ynida o‘ynash, tabiat hodisalarini bevosita kuzatish orqali tarbiyalash tamoyillari ilgari surilgan. Jan Dyui tomonidan ishlab chiqilgan pragmatizm falsafasi esa ekologik bilimlarni bolaning kundalik faoliyati va tajribasi bilan bog‘lash zarurligini asoslagan.

Skandinaviya mamlakatlari tajribasida “outdoor education” konsepsiyasi keng rivojlangan bo‘lib, bu usul orqali bolalar yilning turli fasllarida ochiq havoda mashg‘ulot o‘tkazish, tabiatni bevosita his qilish orqali ekologik qadriyatlarga ega bo‘ladilar. Yaponiyada esa shinto falsafasi asosida shakllangan tabiatni muqaddas qadrlash an‘analari maktabgacha ta’lim dasturlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bolalarda ekologik intizomni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, tabiatni kuzatish, unga mehr bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. So‘nggi yillarda ekologik ta’limni davlat siyosati darajasida rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilinib, bu boradagi ilmiy izlanishlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Davlat siyosati va yo‘l xaritalari doirasida ekologik ta’limga e’tibor 2019-yildan boshlab yanada kuchaytirildi: Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [3] va Vazirlar Mahkamasining Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi [4] maktabgacha tashkilotlarda ekologik mazmun va amaliy loyihalarni (masalan, “Ekolog bolajon”) tizimli joriy etishni nazarda tutadi. Shu bois, xorijiy “forest school” va “outdoor education” tajribalarini milliy hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar — UNESCO va UNICEF tavsiyalarida ham maktabgacha ta’lim jarayonida ekologik bilimlarni shakllantirish, tabiatga qadriyatli munosabatni tarbiyalash barqaror rivojlanish ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tiladi[5].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik bilimlarni maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirish masalasi qadimdan dolzarb bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ilmiy manbalar xorijiy tajribalar bilan bir qatorda milliy pedagogik merosni ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlar asosida tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirish masalasi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Metodologiyaning nazariy poydevorini shaxs rivojlanishi, ta’lim jarayonining ekologik yo‘nalganligi hamda barqaror rivojlanish g‘oyalari tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy metodologik manbalari sifatida Sharq mutafakkirlarining inson va

tabiat uyg'unligi haqidagi qarashlari, Fridrix Frebel va Jan Dyui kabi klassik pedagoglarning tabiatga asoslangan tarbiya haqidagi konsepsiyalari, shuningdek UNESCO hamda UNICEFning ekologik ta'lim bo'yicha tavsiyalari xizmat qildi[6].

Nazariy tahlil metodi-ekologik tarbiya masalasiga oid xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, pedagogik tajribalar hamda davlat hujjatlari o'rganildi, ilmiy qarashlarning umumiyliigi va farqli jihatlarini tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi – xorijiy mamlakatlar (Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya, Skandinaviya davlatlari) tajribalari milliy ta'lim tizimi bilan solishtirildi, ularning ijobiy jihatlarini amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari belgilandi[7].

Tarixiy-pedagogik yondashuv – ekologik bilimlarni shakllantirishning tarixiy asoslari tahlil qilinib, ularning bugungi kundagi ahamiyati ochib berildi.

Amaliy kuzatish va pedagogik tajriba – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tabiatga munosabatini shakllantirish jarayonlari kuzatildi, pedagoglar va ota-onalarning tajribasi tahlil qilindi.

Sotsiologik metodlar – suhbat va anketa so'rovlari yordamida tarbiyachilar, ota-onalar va mutaxassislarining fikrlari o'rganildi.

Metodologik yondashuv sifatida tizimli va faoliyatli yondashuv tamoyillari asos qilib olindi. Tizimli yondashuv orqali ekologik bilimlar bolaning kognitiv, emotsional va irodaviy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Faoliyatli yondashuv esa bolalarning tabiat bilan bevosita muloqoti, amaliy faoliyat va o'yinlar orqali ekologik qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi[8].

Shu tarzda tanlangan metodologiya tadqiqot maqsad va vazifalarini samarali hal etishga, nazariy asoslarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishga imkon berdi.

Natijalar va ularning tahlili

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish jarayonida mavjud yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, kuzatilgan 85 nafar bola orasida:

18 foizida ekologik tushunchalar shakllangan, lekin ularning xulq-atvorida izchil namoyon bo'lmagan;

57 foizida ekologik bilimlar yuzaki darajada, faqat mavsumiy mashg'ulotlar doirasida cheklangan;

25 foizida esa tabiatga nisbatan qadriyatli munosabat deyarli shakllanmaganligi kuzatildi.

Bu holat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya tizimli yondashuvdan ko'ra ko'proq epizodik mashg'ulotlar shaklida tashkil etilayotganini ko'rsatadi.

Eksperimental ishlar davomida bolalarga interaktiv mashg'ulotlar, amaliy tajribalar va tabiat qo'ynidagi faoliyatlar joriy etildi. Masalan, "Yashil do'stlar" loyihasi asosida o'tkazilgan o'yinlarda bolalar o'simliklarni ekish, sug'orish, parvarish

qilishda bevosita ishtirok etdilar. Ushbu faoliyat natijasida 3 oy davomida o'tkazilgan qayta kuzatishlarda:

bolalarning 42 foizi o'simliklarni parvarish qilishda mustaqil tashabbus ko'rsata boshladi;

38 foizi chiqindilarni ajratish va tozalikka rioya qilishda ijobiy o'zgarishlar namoyon qildi;

20 foizida tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabat shakllandi.

Shuningdek, ota-onalar ishtirokidagi qo'shma tadbirlar samaradorlikni yanada oshirdi. Anketa natijalariga ko'ra, dastlab ota-onalarning faqat 22 foizi ekologik tarbiyaga faol e'tibor qaratgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 61 foizga ko'tarildi. Bu esa oilaviy hamkorlikning muhimligini tasdiqlaydi.

Xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida Finlyandiyadagi "forest school" modeli va Skandinaviya mamlakatlaridagi "outdoor education" yondashuvlari bolalarda ekologik qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi[9]. Yaponiyada esa chiqindilarni saralash intizomi maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlanishi bolalarda ekologik mas'uliyatni erta shakllantirishga xizmat qilayotgani kuzatildi. Ushbu elementlarning ayrimlari tajriba-sinov mashg'ulotlariga tatbiq etilganda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi.

Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki:

-faqat nazariy tushuntirish bolalarda barqaror ekologik qarashni shakllantirmaydi, amaliy mashg'ulotlar asosiy vosita bo'lishi kerak;

-ekologik qadriyatlarni shakllantirishda oilaning roli beqiyos, shu bois ota-onalar bilan tizimli hamkorlik zarur;

-xorijiy ilg'or tajribalarni milliy ta'lim amaliyoti bilan uyg'unlashtirish ekologik ta'lim samaradorligini oshiradi;

-bolalarda ekologik qadriyatlar nafaqat bilim, balki hissiy-emotsional tajriba va kundalik faoliyat orqali shakllanishi aniqlangan.

Shu bois, ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirish izchil, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni talab etadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlar asosida tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirish nafaqat ularning kundalik hayotida ekologik madaniyatni yuksaltiradi, balki shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyati va ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy manbalar, xorijiy tajribalar va milliy ta'limiy amaliyotlarni qiyosiy o'rganish shuni anglatadiki, ekologik tarbiya jarayonida o'yin, tajriba, kuzatish, suhbat, amaliy mashg'ulotlar kabi usullardan samarali foydalanish bolalarda barqaror ekologik qarashlarni shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Tadqiqot davomida xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar – “eko-bog'cha” modeli, tabiat qo'ynida ochiq maktabgacha ta'lim maydonchalari, integrativ mashg'ulotlar hamda ekologik loyihalash usullari o'zbek ta'lim tizimida ham qo'llanishi mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarimiz va xalq pedagogikasida mavjud bo'lgan tabiatni asrash va qadrlashga oid boy an'analarning zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirilishi bolalarda ekologik ongni yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirish – bu faqat ta'limiy jarayon emas, balki yosh avlodni ekologik jihatdan yetuk, mas'uliyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalashning ustuvor yo'nalishidir. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiya metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish hamda pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Edwards, C., Gandini, L., Forman, G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. – Santa Barbara: Praeger, 2012. – 440 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonun: O'RQ-595-sonli. 16.12.2019. <http://lex.uz/acts/-4646908>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash: 434-son, 27.05.2019. <http://lex.uz/docs/-4354743>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash: PF-5863, 30.10.2019. <https://lex.uz/docs/-4574008>.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development: Sourcebook. – Paris: UNESCO, 2012. – 198 p.
6. UNICEF. Early Childhood Development: The Key to a Full and Productive Life. – New York: UNICEF, 2012. – 76 p.
7. Sahlberg, P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2011. – 220 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent: 2019. – 35 b.
9. Malikova, S. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish: metodik tavsiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 128 b.